



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

“MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

**“Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi“ yo'nalishi 401-guruh
talabasi Sharipova Dilafruzning**

REFERAT

**MAVZU: Mustaqil taraqqiyot yillarida iqtisodiy hayotdagi
yutuqlar.**



Ilmiy rahbar:_____ T.Yusupov.

Kafedra mudiri:_____ M.Sobirova.

Toshkent – 2014

Mavzu: Mustaqil taraqqiyot yillarida iqtisodiy hayotdagi yutuqlar.

Reja:

Kirish.

I BOB. MILLIY-MA'NAVIY TIKLANISHNING TABIIY-IQTISODIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonning tabiiy-iqtisodiy boyliklari milliy-ma'naviy tiklanish omillaridan

1.2. Mustaqillikning iqtisodiy asoslarini yaratish milliy tiklanishning muhim shartlaridan biri

II BOB.

2.1. Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida taraqqiyotning o'zbek modeli va uning ahamiyati

2.2. Milliy-ma'naviy tiklanish zaminlari va madaniy muammolari

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Mavzuning maqsadi.

Mavzuning vazifasi.

I BOB. MILLIY-MA'NAVIY TIKLANISHNING TABIIY-IQTISODIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonning tabiiy-iqtisodiy boyliklari milliy-ma'naviy tiklanish omillaridan biri

Har bir xalqning milliy-ma'naviy tiklanish jarayonini uning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunday imkoniyatlar milliy-ma'naviy yuksalishni, taraqqiy etgan mamlakatlar safiga qo'shilishga intilayotgan har bir xalq uchun katta rol o'ynaydi. Buni dunyodagi rivojlangan AQSh, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya singari mamlakatlar misolida ko'rish mumkin.

O'zbekiston qulay tabiiy imkoniyatlarga ega mamlakat. Uning faqat o'zigagina xos bo'lgan iqlim sharoiti, ajoyib geografik o'rni, er osti va er usti tabiiy boyliklarining xilma-xilligi va mo'lligi asrlar davomida dunyo mamlakatlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Respublikamiz bag'rini, bir so'z bilan aytganda, javohirlar to'la sandiqqa qiyoslash mumkin. Saxiy zaminimizda er osti va er usti boyliklarining deyarli hammasi bor: misdan tortib ruxgacha, qo'rg'oshindan gazgacha, oltin, vol'fram, neft, alyuminiy, marmar, ko'mir, xromdan tortib, osh va kaliy tuzlarigacha topiladi. O'zbekistonning saxiy zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy-ishlab chiqarishga to'la jalb etilmagan mineral-xom ashyo resurslari ko'p miqdorda to'plangan. Hozirgacha diyorimizda mineral xom ashyoning 100 ortiq turi borligi aniqlangan. Shundan 1997 yilga kelib, 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. Bu mineral-xom ashyolarning 900 dan ortiq koni mavjud bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollari tashkil etadi. Mendelev davriy jadvalidagi ma'danlarning deyarli barchasi O'zbekiston tuprog'ida mavjud. Eng sifatli oltin zaxirasi va uni qazib olish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyingi ikkinchi o'rinda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdor bo'yicha esa birinchi o'rindadir. Muruntov, Marjonbuloq, Zarmitan, Chart va boshqa jami 40 dan ortiq oltin konlari O'zbekistonning faxridir. "Shu bilan birga, - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov, - umumiy mineral-xom ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak."¹

O'zbekistonning tuprog'i shunchalik serunumki, uning oltinga teng bu tuprog'ida istagancha hosil undirish mumkin. O'zbekiston tuprog'i bir yilda bir marta emas, ikki-uch marta hosil bera oladi.

O'zbekistondagi issiq iqlim paxta, kanop, uzum, anjir, qovun va boshqa turli-tuman meva, bog'dorchilik mahsulotlarini etishtirish imkoniyati mavjud. Dehqonchilikning barcha turlari bo'yicha yuqori natijalarga erishish mumkin. O'zbekistonda Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshondek yirik suv resurslari mavjud, ammo bu suv resurslari mamlakat ehtiyojini etarlicha qondira olmaydi. Shuning uchun mamlakatda suv resurslaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1998. - 192-b.

O'zbekiston o'zining bebaho paxtasi, pillasi, g'allasi, chorvachilik mahsulotlari, qorako'li, shirin-shakar mevasiyu, sabzavotlari, yuksak did va mahorat bilan tayyorlangan hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, naqqoshlik asarlari bilan dunyoga allaqachon ma'lum va mashhurdir.

O'zbekistonning tabiiy boyliklaridan biri, doimo mamlakat faxri bo'lib kelgan asosiy boyligi uning paxtasidir. O'zbekiston paxta etishtirish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi. Uning sifatli tolasini harid qilishga Evropa, Osiyo mamlakatlari va boshqa davlatlar doimiy xaridor hisoblanadi. "Oltin zaxiralari bo'yicha Respublika dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zaxiralari bo'yicha 10-11-o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7-8-o'rinda turadi".¹

Shu o'rinda ulkan boyliklar egasi va O'zbekistonni doim gullab-yashnashiga xizmat qilib kelayotgan uning bugungi kunda ko'pining sonli aholisi haqida gapirib o'tish joiz. Azaldan shu tuproqda istiqomat qilib kelayotgan xalq - o'zbeklar butun aholining 72 foizini tashkil etadi. Turli millat va elatlardan iborat mamlakat aholisi har yili o'rtacha 450-550 ming kishiga ko'paymoqda. Aholi sonining o'sib borishi bu erda ishchi kuchining o'sishiga va mamlakat makroiqtisodiyotning taraqqiy etishiga zarur tabiiy imkoniyatdir.

Boy imkoniyatlarga ega, sersuv, serunum hosildor erlar, mehnatkash xalq, gullab-yashnagan voha har doim ayrim xorijlik chet dushmanlar nafsini qitiqlab kelgan. Tariximizni varaqlab ko'rsak, ona tuprog'imiz mudom qaysidir kelgindi bosqinchilar oyog'i ostida toptalganligi, bebaho boyliklarimiz talon-taroj bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

Chor Rossiyasi Turkistonda o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida, ayniqsa, paxtadan ko'proq hosil undirish, o'z daromadlarini ko'paytirish uchun har qanday zo'ravonlikdan qaytmadi. Shu maqsadda bu o'lkaga minglab ruslar joylashtirildi. Buning orqasida o'lkadagi o'troq va ko'chmanchi aholi unumdor erlar va yaylovlarning talay qismidan mahrum bo'lib, og'ir ahvolga tushib qoldi. Paxta etishtirish shu darajada kuchaydiki, mehnatkash erli xalqni ezishning turli usullari vujudga keldi. Ammo paxtaning deyarli hammasi, keyinchalik paxtani qayta ishlaydigan zavodlardan tushayotgan foyda ham rus boylariga tegishli edi.

O'lkamiz boyliklarini talon-taroj qilish Sobiq sovetlar davrida oshsa-oshdiki, kamaymadi. O'zbekistonning tonna-tonnalab oltin, kumush, paxta, pillasiyu, qorako'l terisi, rangli metallari, meva, ziroati, barcha-boyliklari markazni boyitdi, bir guruh zo'ravonlar cho'ntagini qappaytirdi. Shu ne'matlarni yaratgan, sobiq sovetlar siyosati uchun sidqidildan xizmat qilgan o'zbekistonlik mehnatkashlarga esa mehnati evaziga arzimagan haq to'landi. Hatto bu xalqqa "boqimanda"ligi, O'zbekiston aholisining "davlatdan qarzdor"ligi tez-tez eslatib turildi.

"74 yil mobaynida O'zbekiston taqdiri va ta'minoti sobiq Ittifoq qo'lida edi. Sobiq Ittifoq bu erdan mahsulot va xom ashyoni olib ketib, bizga suv va havoday zarur narsalarni o'z ko'rsatmasi bilan keltirib berardi. Sodda qilib aytganda, paxta va boshqa boyliklarimiz olib ketilardi, don, shakar, yonilg'i va boshqa xalq

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. 193 - bet

iste'moli mollari, umuman, hayotimizga, iqtisodiyotimizga va xalq xo'jaligimizga zarur bo'lgan mahsulotlar olib kelinardi"¹.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston sobiq sovetlar davrida mehnatiga yarasha izzat ko'rmadi. Rasman ozod, mustaqil davlat bo'lsa-da, aslida markazga turli yo'llar bilan bog'lab qo'yilgan mute, mustamlaka mamlakat edi. Ayniqsa, XX asr 80-yillarning ikkinchi yarmida qulashi tayin bo'lib qolgan sobiq sovet hokimiyati O'zbekistonda "o'zbek ishi", "o'zbek mafiyasi", "o'zbek poraxo'rlari" deb atalgan haqoratomuz atamalar qo'llash orqali kechani-kechani, kunduzni-kunduz demay mehnat qilayotgan qadoq qo'lli xalq sha'niga tuhmatlar yog'dirildi. Bu esa endi ularning haddidan oshishi, erli xalqning nafsoniyatiga o'tkazgan ortiqcha zug'umi bo'ldi.

Faqat mustaqillik O'zbekistonga o'zining boy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish imkonini berdi. Qadoq qo'lli dehqon o'z eriga ega bo'ldi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlari o'zining munosib egasini topdi. Faqat ozodlik, mustaqillik, erkinlik tufayli 74 yil asoratga solinib kelingan o'zbek xalqi emin-erkin nafas olib, ijodiy mehnat bilan shug'ullanishga va o'zining farovon turmushini yaratish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Istiqlolni qo'lga kiritgan O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olar ekan, bunda uning tabiiy imkoniyatlari asosiy omil bo'ldi. Zero, mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy mustaqillikni amalga oshirish va uni mustahkamlash uchun iqtisodiy omil hal qiluvchi rol o'ynashi tabiiy. Shuning uchun ham Yurtboshimiz I.A.Karimov mustaqillik haqida gapirar ekan shunday degan edi: "Mustaqillik biz uchun, eng avvalo, ona zaminga egalik, er osti va er usti boyliklarimizni o'zimiz, avvalambor, respublikamizda yashayotgan aholi uchun ishlatish, boshqacha aytganda, o'z taqdirimizni o'zimiz hal qilishimiz deganidir". Haqiqatan ham mustaqillik O'zbekiston xalqi hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. Prezidentimiz yuqoridagi so'zini davom ettirib, shunday deydi: "Bizning oliy maqsadimiz-mustaqillik edi. Bunga erishdik. Mustaqillikning oliy maqsadi-o'zbek xalqining izzatini joyiga qo'yish"².

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib berilgan O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li besh tamoyilga ega. Ana shu tamoyillarning birinchisi iqtisodning siyosatdan ustunligidir va uning mafkuraviy holatlardan xoliligidir. O'zbekiston iqtisodiyoti uzoq yillar davomida zo'ravonlikka asoslangan, markazdan boshqarilib turiladigan (derektiv) iqtisoddan iborat ediki, oqibatda respublika tabiiy ehtiyoj-imkoniyatlari hisobga olinmay rejalashtirildi. Bu esa mamlakat iqtisodida turli bulishlar, o'pirlashlar va yo'qotishlarga olib keldi. Mana shu xunuk oqibatlarni tuzatish, inqirozga yuz tutgan mamlakat iqtisodini qayta oyoqqa turg'izish, xalqni hech qanday larzalarsiz, burnini qonatmay inqiroz davridan eson-omonlik bilan olib chiqish mustaqillikning ilk kunlaridagi eng dolzarb masala bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillari xalqqa oson bo'lmadi. Iqtisodiy etishmovchilik, xalq iste'mol tovarlarining taqchilligi, ishsizlik ketma-ket boshqa muammolarni keltirib chiqarardi. Mana shunday murakkab bir sharoitda davlat

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 3-b.
² o'shaasar, 107-bet.

rahbarlaridan o'ta mohirlik va tadbirkorlik bilan, uzoqni ko'zlab, xalqning barcha qatlamlarini birday ijtimoiy himoya qilgan holda iqtisodiy siyosat yuritishni taqozo etardi.

Belgilab olingan taraqqiyot yo'limiz bozor munosabatlariga asoslangandir. Bu munosabatlar mazmuni shundan iboratki, xalqni raqobatbardosh tovarlar bilan ta'minlash orqali turmushini farovonlashtirish. Bozor munosabatlariga o'tishda bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l tanlandi. "... Birdaniga bozor munosabatlariga o'tish-bema'ni gap. O'zbekistonning yo'li shuki, biz tinchlik va osoyishtalikni saqlab, bozor iqtisodiga o'tishni shoshmasdan, aholining nochor qismini avaylab-asrab, ularga etarli shart-sharoitni yaratib berib, ana undan keyin amalga oshirishga bel bog'ladik" degan edi o'shanda I.A.Karimov.

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning evolyutsion yo'lini tanlar ekan, bu bekorga emas. Chunki buning uchun barcha imkoniyat, shart-sharoitlarga egadir. Iqtisodiy-tabiiy resurslar, iqtisodiy tizimlar va eng muhimi sabr-toqatli, keng mulohazali, zahmatkash xalqi O'zbekistonning bundan keyingi bozor munosabatlariga o'tishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

1.2. Mustaqillikning iqtisodiy asoslarini yaratish milliy tiklanishning muhim shartlaridan biri

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan juda katta ishonch va asosli ravishda aytilganidek, "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat". Mustaqillik poydevorini saqlab qolish, uni yanada mustahkamlash uchun mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilash istiqlolning dastlabki kunlaridagi eng muhim vazifa edi.

Odamlarning oziq-ovqat, kiyim-kechakka, uy-joy, xullas, iqtisodiy ehtiyojini zarur darajada yaratmay jamiyatni taraqqiy ettirish qiyin. Shuning uchun butun imkoniyatlarni ishga solgan holda, O'zbekiston iqtisodini tiklashga kirishildi. Iqtisodni rivojlantirish orqali qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritilgan mustaqillikni saqlab qolish zarur edi. Zero, moddiy zamini bo'sh, iqtisodiy jihatdan zaif bo'lgan mamlakatning, xalq va millatning kelajagi bo'lmaydi, unga omad kulib boqmaydi. Quruq so'z, soxta va'dalar va dasturlar bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Hamma narsani amaliyot hal etadi.

Sobiq sovet tuzumi davrida O'zbekistondan olib chiqib ketiladigan boyliklarning 70 foizini faqat xom ashyo tashkil qilardi, chetdan esa 70 foiz tayyor mahsulotlar, aholiga eng zarur bo'lgan don, go'sht, sut mahsulotlari, neft, yoqilg'i, uskunalar kabi tovarlar olib kelinardi.

Qaramlik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirmaslikka, uni xom ashyo bazasiga aylantirishga katta e'tibor berildi. O'zbekiston Markazning asosiy paxta bazasiga aylantirilib, ekin maydonlarining barchasiga paxta ekilgan. O'zbek xalqi serunum, hosildor erlarda yashasa-da, ko'plab qishloq xo'jalik mahsulotlarini, xususan, kartoshkani chetdan olib kelishga majbur bo'lar, don, go'sht mahsulotlari ham chetdan olib kelinardi.

O'zbek xalqi faqat paxta uchun ishlaydigan, paxta dalalaridan beri

kelmaydigan millatga aylana borgan edi. Maktab o'quvchilari, talabalar ilmi, ma'rifatli bo'lish o'rniga hayotining katta qismini paxta dalalarida o'tkazardi.

Paxta yakkahokimligi xalqimiz hayotining yaxshilanishiga emas, balki yomonlashib borishiga olib keldi. O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'troq xalq sifatida dexqonchilik bilan shug'ullanib, o'zlariga qo'shni xalqlarni ham qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan. sobiq sovet davlatining O'zbekistondagi barcha ekin maydonlarini paxtazorlarga aylantirishi aholini qishloq xo'jalik mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojining ortirish bilan birga, suv muammosining paydo bo'lishiga olib keldi.

Mustaqillik bugungi kunda bunday salbiy holatlarning oldini olish imkoniyatlarini yaratib berdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'zimizda ishlab chiqarish chora-tadbirlari ko'rildi. Natijada, agar istiqloq arafasida mamlakatimizda yiliga atigi 900 ming tonna atrofida g'alla etishtirilgan bo'lsa, 2003-2004 yillarga kelib, ushbu ko'rsatgich 5 ml. tonna, 2005 yil 6 mln. tonnadan oshdi. O'zbekistonda 2003 yildayoq g'alla mustaqilligiga erishildi. 2008 yil 6,330 million tonna don¹, 2009 yilda 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy etishtirildi, 3,4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi². 2010 yilda esa 7 million tonnadan ortiq g'alla etishtirildi (Xalq so'zi, 2010 yil 21 iyul). Bu muvaffaqiyatga erishishning o'ziga xos sabablari bo'lib, ulardan biri mamlakatda paxta yakka hokimligiga barham berilib, g'allazorlarning kengayganligi, dehqon fermerlarga yaratilgan keng imkoniyatlar va har bir qishloq oilasiga o'z tomorqasida etarlicha g'alla ekish erkinligining berilganligidir.

Qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirish maqsadida 2008 yil 20 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov- ning "Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni etishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonda yurtimiz fuqarolarining katta qismi yashab kelayotgan qishloq joylari aholisining turmush kechirish sharoitlarini yanada yaxshilashga e'tibor qaratildi.

Mamlakatda er o'z egasini topgan. Istiqloqning dastlabki kunlaridanoq dehqonlarga er berish orqali dehqonning erga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga erishildi. Kolxoz va sovxozlar o'rnida jamoa xo'jaliklari va undan asta-sekin dehqon-fermer xo'jaliklariga o'tildi. O'z mehnati samarasidan manfaatdor bo'layotgan dehqon endi o'ziga qarashli erni e'zozlashga, fidokorona mehnat qilishga kirishdiki, bugungi kunda dehqon-fermer xo'jaliklari tomonidan etishtirilayotgan mahsulotlar butun mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini egallaydi. Mamlakat dehqonlarining mehnati bilan 5 ming tonnadan ortiq meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirildi. Bugungi dehqonning iqtisodiy ahvoli kechagi sobiq sovet davri dehqoni ahvolidan

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 15-b.

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. - 50-b.

tubdan farq qiladi. Bugungi dehqon ertangi kun orzusi, rejasi bilan, ijodiy mehnat qilish bilan band bo'lmoqda.

“Yurtimizda, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov, - 2009 yilning «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi, shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal ob'ektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi.

Bularning barchasi qishloq aholisi turmush darajasini tubdan oshirish va shahar sharoitiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarga moliyalashning barcha manbalari hisobidan 2009 yilning o'zida 2 trillion 600 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi.

Eng muhimi, o'tgan yili qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo'ljallangan loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli zamonaviy salohiyatga ega bo'lgan baza yaratishga erishdik. Bu borada moliyalash manbalari va mablag' ajratish mexanizmi belgilab olindi. “Qishloq qurilish bank” va “Qishloq qurilish loyiha” loyihalash instituti kabi ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi... Ixtisoslashtirilgan “Qishloq qurilish invest” buyurtmasi kompaniyasi tashkil etilib, mamlakatimiz bo'yicha 42 ta massivda yangi uy-joylar qurilishi boshlab yuborildi”¹.

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini qishloq aholisi tashkil etadi. Qishloq aholisining moddiy turmush darajasini yaxshilash, qishloqqa shahar tusini berish, qishloq madaniy-maishiy ahvolini ko'tarish bugun mamlakat oldida turgan eng muhim vazifalardan. Respublika aholisining katta qismini qishloqda yashashini hisobga olgan holda, sanoatni keng qamrovda qishloq joylarda tashkil etish, bu erda kichik biznesni rivojlantirish, kichik korxonalarni ko'paytirish orqali qishloqlarning zamonaga xos taraqqiyotini kuchaytirish va aholining ish bilan bandlik muammosi hal etilmoqda. Bu masalani hal etishda qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Natijada mamlakatimiz fermer xo'jaliklarida bugungi kunda 1 milliondan ziyod kishi band bo'lib, 2005 yilgi paxta xom ashyosining 66 foizi, g'allaning 55 foizdan ortig'i fermer xo'jaliklari tomonidan etishtirildi. Dehqon-fermerlar ishini engillashtirish maqsadida davlat tomonidan turli lizing xizmatlari, bank tizimi va boshqa turdagi xizmatlar tashkil etilgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan eng asosiy paxta ekan, uni etishtirish va qayta ishlash sohasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bir paytlar paxtadan faqat xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda undan tayyor mahsulot olish choralari ko'rilmoqda. Hozirda O'zbekiston paxtasining 39 foizi qayta ishlanayotgani holda, kelgusida 55 foizini qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida sotish rejalashtirilmoqda. Birgina Toshkentning o'zida faoliyat yuritayotgan ko'plab tikuvchilik tsexlari paxtadan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan.

O'zbekistonda etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining qo'shni

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. - 70-71-b.

davlatlarga, jahon bozorlarida sotilishi aholi turmush darajasining yaxshilanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq joylarga sanoatning kirib borishi, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash bilan birga aholi daromadining oshib borishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2009 yili, ya'ni "Qishloq taraqqiyoti va farofonligi yili"da "Qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining hayot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish" ijtimoiy masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur maxsus davlat dasturi "Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo'ladi", degan g'oyani o'zida mujassamlashtirgan edi. ... Qishloq hayotini obod etishda ularning qiyofasini o'zgartirish, bugun qishloq joylarda yashayotgan odamlarning turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish, kerak bo'lsa, uni shahar sharoitiga yaqinlashtirish g'oyat muhim o'rin tutadi."¹ Keng ko'lamli ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida o'tgan yili "840 dan ortiq loyiha amalga oshirildi va bu mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2008 yilga nisbatan 2,3 barobar oshirishni ta'minladi"².

2008 yilning 14-15 oktyabr kunlari Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkent IV xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi bo'lib o'tdi. Ushbu yarmarka o'zbek paxtasi dunyoda o'z xaridoriga ega ekanligini ko'rsatdi. Yarmarka yakuni bo'yicha xorijiy davlatlar bilan 950 ming tonnadan ortiq paxta tolasini sotish bo'yicha shartnoma va bitimlar imzolandi. Bunday yutuqlarning zamirida istiqloq, O'zbekistonning ozodligi, hurligi yotadi. Agar u mustaqillikka erisha olmaganda bunday yutuqlar qayoqda edi? Mamlakatda makroiqtisodiyotni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalashtirish davom etmoqda. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasi ta'minlanmoqda. Tadbirkorlik va tashabbuskorlikka keng yo'l ochilgan. Xususiy tadbirkorlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning qariyb 75 foizi, sanoat mahsulotlarining 78 foizidan ortig'i, qishloq xo'jaligi va chakana savdo aylanmasining deyarli barcha mahsulotlari nodavlat sektor ulushiga to'g'ri kelmoqda. Nodavlat sektorda 77 foiz yoki iqtisodiyotda band bo'lgan kishilarning to'rt dan uch qismi mehnat qilmoqda. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish suratlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan aholi bandligi va daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Bunga ko'p jihatdan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotganligi tufayli erishildi. Kichik biznes ob'ektlari ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda kichik tadbirkorlik (biznes)ning yalpi mahsulot hajmidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Kichik biznesning ichki mahsulotdagi ulushini o'tgan yildagi (2009) 50

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O'zbekiston, 2009. – 11-12-b.

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 39-b.

foizdan 2010 yilda 52,5 foizga etkazish vazifasi qo'yilgan¹. Bugungi iqtisodiyotda band bo'lgan aholining ko'prog'i mazkur sohada faoliyat yuritmoqda. Yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining katta qismi aynan kichik biznes hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Keyingi yillarda davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish, xo'jalik sub'ektlari hamda tadbirkorlikning iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xalq xo'jaligida tadbirkorlik, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikka keng yo'l ochilishi, davlat tomonidan xususiylashtirish-ning yo'lga qo'yilishi, kundankunga xususiy sektor ulushining ortib borishi odamlar dunyoqarashida, mentalitetida o'zgarishlarga olib keldi, ulardagi boqimandalik va faqat davlatdan yordam kutib yashash kayfiyati barham topmoqda.

Xususiylashtirish, xususiy mulkni mustahkamlash, kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari tashkil etish va tadbirkorlikni rag'batlantirish hisobidan mamlakatimizda demokratik jamiyatning asosi va tayanchi sifatida o'rta sinf amalda shakllanmoqda.

"...Dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham shakllanib kelayotgan o'rta sinf bo'lmish mulkdorlar sinfining muhim tarkibiy qismi, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy tayanchi va suyanchi hisoblanadi"¹. Aynan ana shu odamlar jamiyatimizning tayanchi bo'lib, uning ijtimoiy asosini tashkil etadi. Chunki ular demokratik va bozor islohotlarini davom ettirish va chuqurlashtirishdan, mamlakatni barqaror va izchil rivojlantirishdan ko'proq manfaatdordir.

O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot sohasida qator yutuqlar bilan birga o'z echimini kutayotgan va kechiktirib bo'lmay hal qilishi zarur bo'lgan iqtisodiy muammolar ham mavjud.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, xalq xo'jaligini taraqqiy ettirishda bir qator muammolar bor. Qishloqda sanoatni vujudga keltirish, ya'ni, qishloqni lokalizatsiyalash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning kichik korxonalariga asoslangan tarmog'ini shakllantirish haliyam talab darajasida emas. Qishloq aholisiga turli maishiy xizmat ko'rsatish sohasini kuchaytirish va samaradorligini oshirish zarur.

Shu boisdan ham ana shu muammolarning oldini olish maqsadida "keng ko'lamli ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida o'tgan yili (2009) 840 dan ortiq loyiha amalga oshirildi va bu mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2008 yilga nisbatan 2,3 barobar oshirishni ta'minladi... 2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etish mo'ljallanmoqda. Ularning qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. - 64-b.

¹: Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O'zbekiston, 2009. – 27-b.

rekonstruktsiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratiladi».² Tadbirkorlik va ishbilarmonlikni qo'llab quvvatlash davlat dasturi bo'yicha amalga oshirilmoqda.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi muammolarni hal etishda aholi faoliyati bilan bir qatorda xalqqa yo'l boshchilik qiladigan, joylarda tashkiliy, boshqaruv ishiga rahbarlik qiluvchi shaxslarning o'rni kattadir. Yurtimizda o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan, xalqim deb, yurtim deb xizmat qilayotgan rahbarlar bilan birga, afsuski, faqat o'z manfaatini ko'zlab ish yuritayotgan, xalqning ijtimoiy ahvoli bilan qiziqmaydigan, rahbarlik faoliyatida qat'iylik va azmu shijoat etishmaydigan rahbarlar ham yo'q emas. Masalan, fermer xo'jaliklarining tashkil etilishida ba'zi joylarda tender shartlarining qo'pol ravishda buzilishi, sersuv, unumdor, dehqonchilikka yaroqli erlarning asosiy qismini o'z qarindoshlariga berish hollari uchrab turibdi. Prezidentimiz va keng jamoatchilik, parlament nazorati tufayli bunday rahbarlar faoliyatiga o'z vaqtida chek qo'yilmoqda.

Hammamizga ma'lumki, bizda davlat bosh islohotchi, degan tamoyil bor. Davlatning bosh islohotchi rolini u ishonib qo'yilgan biron - bir lavozim egasi-rahbar amalga oshiradi, ya'ni barcha islohotlar boshida-davlatning xodimi turadi. Shunday ekan, rahbar jamiyatda bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlarga, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasiga javobgar shaxs hisoblanadi. Hozirgi davr rahbardan o'z manfaatini emas, ko'proq xalq, davlat manfaatini o'ylab ish ko'rishni taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy-ma'naviy tiklanish jarayoniga ta'sir etmasligining iloji yo'q, bunday islohotlar milliy-ma'naviy tiklanishning mezonini bo'lib xizmat etadi. Insoniyat tarixida shu narsalar isbotlab berildiki, o'z umrini yashab bo'lgan eski tuzum qonun-qoidalarini yangicha asoslarda o'zgartirish tarixiy zaruriyatga aylandi va bunday o'zgarishlar barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar orqali amalga oshirilmoqda. Amalga oshiriladigan islohotlar jamiyatning ma'naviy hayotini ham o'z ichiga qamrab olib, u jamiyat, millat hayot-mamotini hal etib beradigan kuch sifatida maydonga chiqadi.

Xalqimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi uning asrlar mobaynida orzu bo'lib kelgan umidlarini ro'yobga chiqarish, sobiq sovet tuzumidan qolgan illatlardan qutilish, uning o'rnida bozor munosabatlariga asoslangan holda rivojlanish, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish imkonini yaratib berdi. Bunday ezgu maqsadlar osonlik bilan amalga oshirilmaydi, mustaqillik yillarida taraqqiy etgan mamlakatlarning turli sohada erishgan yutuqlari o'rganilib chiqildi, ulardan andoza sifatida foydalanildi va shular asosida yangilanishlar, islohotlar kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bunday kontseptsiyani ishlab chiqish jarayonida xalqimizning milliy mentaliteti, o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlar har tomonlama hisobga olindi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshiriladigan islohotlardan jamiyat a'zolari hayotini

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 39, 73-b.

farovonlashtirish, yurt taraqqiyotini yanada yuksaltirish maqsadlari ko'zda tutildi.

Jamiyat hayotida katta o'zgarishlarga erishish, uning taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan illatlar barcha sohalarda, shu jumladan, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda ham mavjuddir. Shuning uchun ham keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar jarayoni mazkur sohalarni ham o'z ichiga qamrab olgan.

O'zbekiston taraqqiyot va yuksalish uchun katta imkoniyatlarga ega mamlakat, uning qulay geografik joylashuvi, xilma-xil tabiiy boyliklari yurtimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olish imkoniyatini bermoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining shu qulay imkoniyatlaridan xalqimizning hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan hamkorlikni dunyoning taraqqiy etgan ko'plab mamlakatlari bilan keng ko'lamda olib bormoqda. Bunday hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi albatta mustaqillik sharofati tufayli. Sobiq sovet tuzumi davrida O'zbekistonning chet mamlakatlar bilan mustaqil holda aloqa qilishini ko'z oldimizga ham keltira olmas edik, har qanday aloqalarimiz faqatgina markazning ruxsati bilan, Moskva orqali amalga oshirilardi. Ajdodlarimiz orzusi bo'lgan mustaqillikning yo'lga kiritilishi xalqimizga o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlab olish, jahon hamjamiyati bilan barcha sohalarda hamkorlikni kuchaytirish keng imkoniyatini yaratib berdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xorijiy davlatlar bilan o'zining erkin, hech narsa bilan cheklab qo'yilmagan, to'la teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatini yuritib kelmoqda.

Bir vaqtlar hisob-kitob ishlarining hammasini ittifoq idoralari amalga oshirardi. Respublikada etishtirilayotgan jami tabiiy boyliklar, xom ashyo va boshqa mahsulotlar qayoqqa ketayotganini, qaysi mamlakatga pullanayotganligi va u qaerga sarflanayotganligini markazdagilardan o'zga hech kim bilmasdi. Faqat mustaqillik tufayligina o'zimiz yaratayotgan boyliklarga o'zimiz ega bo'ldik. Bugungi osmono'par binolarimiz, o'nlab qurilgan ko'priklarimiz, minglab yoshlarni o'z bag'riga olgan kollej-litseylarimiz, xullas, barcha bunyodkorlik ishlarimiz ana shu milliy boyliklarimiz orqasidandir.

Shunday imkoniyatlarni yaratib bergan istiqlolni sharaflab, mustaqillikni mustahkamlash bugungi kunda har birimizning oldimizda turgan eng muhim muqaddas vazifalardandir. Jamiyatimizdagi illatlarga barham berish orqali, mamlakatimizdagi muammolarni hal etish mumkin. Agar har kim o'z vazifasiga sidqidildan, halol yondashsa, mas'uliyat bilan ish yuritsa, albatta barcha muammolar hal bo'lishi tabiiy.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston iqtisodini mahalliy kadrlar bilan ta'minlash maqsadida mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq davlat dasturi ishlab chiqildi. Sobiq sovet davrida mavjud bo'lgan kadrlarni saqlab qolish, ularga shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga ta'lim tizimida 1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Bugun mamlakatimiz bo'ylab 297 yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarni bitirib chiqqan ko'plab mahalliy kadrlar mamlakatimiz korxonalarida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mustaqil mehnat faoliyatini davom ettirmoqdalar.

“O’tgan davr mobaynida ana shu litsey va kollejlarni 1 million 446 mingdan ziyod farzandlarimiz, jumladan, 1 million 55 ming nafardan ortiq qishloq yoshlari bitirib, bugungi kunda ishlab chiqarish, qishloq xo’jaligi, boshqaruv va ijtimoiy sohalarida, barcha jabhalarda mehnat qilayotgani bizning shu yo’lda erishgan eng katta yutug’imiz bo’ldi”¹.

Milliy kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta’minlash davlatimiz oldidagi iqtisodiy masalalardan biri. 2010 yil 28 iyulda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni ham aynan mana shu masalaga bag’ishlangan¹. Farmonda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturiga muvofiq hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag’batlantirish, yoshlarni, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasiga alohida e’tibor berilgan. Mamlakatda milliy kadrlarga berilayotgan diqqat-e’tiborning mohiyati shundaki, ushbu dastur orqali xalq xo’jaligining barcha tarmoqlarini mahalliy kadrlar bilan ta’minlash, mamlakat aholisini ish o’rinlari bilan band etish va yoshlarning kelgusida jamiyatda o’z o’rnini topishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iborat.

O’zbekiston kundan-kunga chiroy ochib, go’zallashib bormoqda. Bugun uning tabiiy boyliklari mehnatkash xalqimiz tomonidan ishlab chiqarishga safarbar etilmoqda. Bu boyliklar egasi bugun mana shu xalq.

O’zbekiston - mustaqil mamlakat. U endi biladi, qaramlik, mutelik nima ekanligini. Yana qayta kishan taqishni istamaydi. O’z haqini birovga bermoqchi ham emas, tenglar ichida teng hamkorlik yo’lini tutgan mamlakat.

O’zbekiston dunyo davlatlari bilan ana shu tamoyillar asosida hamkorlik aloqalarini o’rnatgan. U qisqa vaqt ichida o’nlab xalqaro tashkilotlarga a’zosi bo’lishga erishdi. Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro elektr-aloqa uyushmasi, Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va taraqqiyot banki, Bojxona hamdo’stligi kengashi va boshqa shu kabi xalqaro iqtisodiy hamda moliyaviy tashkilotlar mamlakat iqtisodiyoti taraqqiy etishida muhim rol o’ynamoqda.

O’zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi uning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy sohada hamkorlikni davom ettirishga asos bo’lib xizmat qilmoqda. Jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqada bo’lish respublikamizda mustamlakachilik davridan qolgan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni hal qilish imkonini beradi.

O’zbekiston o’zining geografik joylashuviga ko’ra, dengiz va okean suv yo’llariga to’g’ridan-to’g’ri chiqa olmaydi. Bu esa uning tashqi iqtisodiy faoliyati imkoniyatlarini birmuncha cheklab qo’yadi.

O’zbekiston Rossiya orqali faqat shimolga chiqishi mumkin. Mustaqillik yillarida Janubga borish uchun Afg’oniston orqali Pokistonga, Hind okeaniga,

¹ Karimov I.A. O’zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O’zbekiston, 2009. – 20-b.

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni // Xalq so’zi, 2010 yil 29 iyul.

G'arbga Eron orqali Turkiyaga, Fors ko'rfaziga, Xitoydan esa barcha yaqin Sharq mamlakatlariga chiqish uchun mustaqillikdan so'ng zarur magistral yo'l qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston bugungi kunda Osiyo, Evropa, Janubiy Sharqiy Evropadagi qator mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni teng huquqlar asosida davom ettirmoqda. Bu davlatlar bilan aloqa qilishda turizmni rivojlantirish orqali ham mamlakat iqtisodiga chet el valyutasining kirib kelishiga alohida e'tibor berilmoqda. Turizmni rivojlantirish orqali mamlakatimiz madaniy-ma'naviy boyliklarining qayta jonlanishiga erishilmoqda.

Mamlakatimiz uzoq yillar davomida bir qator mamlakatlar bilan yaqin do'st, qo'ni-qo'shni sifatida hayot kechirmoqda. MDH davlatlari o'rtasida sobiq sovet davrida shakllangan iqtisodiy aloqalar mustaqillikdan so'ng yangi ko'rinishda qayta tiklandi. Respublika tabiiy boyliklarini qayta ishlashda Rossiyaning "Gazprom", "Lukoil" kompaniyalari, Qozog'iston tomonidan tashkil etilgan qo'shma korxonalar va boshqa MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston iqtisodiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston o'zining tashqi savdosi, iqtisodida importdan ko'ra, eksport salohiyatini oshirishga intilmoqda. Eksportda xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatdan tayyor mahsulotlar etkazib beruvchi mamlakatga o'tish yo'lini tutmoqda.

O'zbekiston bugungi kunda barcha muammolarini o'zi hal etayotgan mamlakat. Buning ma'naviy zamini esa u qo'lga kiritgan mustaqilligidir. Istiqlol tufayli O'zbekiston butun dunyoga tanildi. U endi tenglar ichra teng mamlakatdir.

2.1. Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida taraqqiyotning o'zbek modeli va uning ahamiyati.

Milliy ma'naviy tiklanish jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir va u albatta har qanday jamiyatning asosi hisoblangan iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy iqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olar ekan, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari o'zlarining bugungi turmush darajalariga erishishlari yo'lida iqtisodiyot sohasiga katta ahamiyat berganligiga va iqtisodiyotni rivojlantirish orqali bugungi hayot tarziga erishganligiga alohida e'tibor qaratildi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil davlatchilikka erishish, yangi iqtisodiy negizni shakllantirish, xalqning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan uyg'onishi sobit qadam va astoydil harakat qilish yo'li bilan amalga oshgan.

Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning ilk kunlaridanoq "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" (1992) asarida O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyot tajribasini tahlil etdi. Jahon taraqqiyotida: 1) Demokratiya va qonunchilik. 2) Mulkchilikning turli shakllari va unga munosabat. 3) Yuksak ma'naviyat va madaniyatning rivojlanishi. 4) Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga kirish masalalari ko'rsatib berildi. Asarda Markaziy Osiyo respublikalari ijtimoiy tuzumini o'zgartirish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi: 1. Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan demokratik, iqtisodiy boshqaruviga o'tish. 2. Mulkchilikning begonalashuvi: rejali iqtisodiyotdan bozor xo'jaligi iqtisodiyotiga o'tish.

3. Totalitar, aqidaparastlik mafkurasidan hurfikrlilikka, ko'ppartiyaviylikka, umuminsoniy ma'naviyatga amal qilish. 4. Jahon hamjamiyatiga kirib borish¹. Umuman, "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" (1992), "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" (1993) asarlarida "O'zbek modeli"ga asos soldi.

Jahon mamlakatlarining taraqqiy etish yo'llari o'rganib chiqilar ekan, jamiyat hayotini yuksaltirish yo'lida ulardan ko'p narsalarni o'rganish mumkin ekanligi sezildi va jahon tajribalaridan foydalanilgan holda bugungi kunda dunyoda "O'zbek modeli" sifatida tan olingan o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot modeli ishlab chiqildi. Ayni chog'ida biron-bir andozadan, hatto u muayyan mamlakatda ijobiy natijalarga olib kelgan bo'lsa ham, ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish mutlaqo nomaqbuldir. Shunisi aniq-ravshanki, muayyan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, ular o'sha mamlakatga xos bo'lgan alohida sharoitdagina ijobiy samara borishi mumkin.

Jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish jarayoni taraqqiyotning mazkur modeli bilan bog'liq ekan, milliy- ma'naviy yuksalish yo'lida muhim ro'lb o'ynaydigan taraqqiyotning o'ziga xos o'rni bo'lgan o'zbek modeli mustaqillik yillarida o'zining tutgan o'rni katta ekanligini isbotlab bermoqda. Mustaqillik

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 36-85-b.

yillarida yurtimizda milliy-ma'naviy tiklanish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar taraqqiyotning o'zbek modelida o'z ifodasini topgan barcha tamoyillar bilan chambarchas bog'liqdir.

“O'zbek modeli”ning tamoyillari:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va u mafkuraviy holatlardan xoli (bu degani):

- 1) Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish.
- 2) Bahoni bosqichma-bosqich erkin lashtirish.
- 3) Bozor infratuzilmasini shakllantirish.
- 4) Aholini ijtimoiy himoyalash.

2. Davlatning bosh islohotchiligi:

- 1) Davlat iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi.
- 2) Iqtisodiyotni ijtimoiy sohaga yo'naltiradi.
- 3) Iqtisodiy faoliyatning huquqiy asosini yaratadi.
- 4) Iqtisodning erkinlashtirilishini ta'minlaydi.
- 5) Ijtimoiy muammolarni hal qiladi.
- 6) Ishbilarmonlik, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashadi.
- 7) Ijtimoiy siyosat orqali ijtimoiy muammolarni bartaraf qiladi.

3. Qonun ustuvorligi:

- 1) Qonun ustuvorligi tamoyili sud-huquq tizimini rivojlantirish bilan bog'liq.
 - 2) Qonun oldida hammaning tengligi.
- Yuridik va jismoniy shaxslar o'z ish faoliyatini qonun asosida bajarishi.
- 3) Davlat hokimiyatining bo'linish tamoyili, mustaqilligini ta'minlash.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat:

1) Aholini ish bilan ta'minlash (Bu 3 ta sektorning: davlat, xususiy va nodavlat sektorining vazifasi).

- 2) Daromad siyosatini yuritish: pul daromadi.
- 3) Ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy adolatni ta'minlash.
- 4) Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish.
- 5) Xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash.
- 6) Har kimning mehnat qilishi uchun keng imkoniyat yaratish, qobiliyatiga yarasha ish bilan ta'minlash.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqichligi tamoyili:

- 1) Bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan amalga oshirish (“Shoka terapeya” usuli (yo'li) keskinlikka olib kelishi mumkin). Bu Osiyo taraqqiyot yo'liga yaqin.
- 2) Ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berib, asta-sekin boshqaruvning demokratik, erkin iqtisodiy boshqaruviga o'tish.
- 3) “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmas”lik.
- 4) Kishilar tafakkuri, ongini bosqichma-bosqich takomillashtirish.
- 5) Odamlarning qashshoqlanishiga yo'l qo'ymaslik.
- 6) Jamiyat siyosiy sohasini, davlat va jamiyat qurilishini asta-sekin isloh qilish.

Uzoq vaqt qaramlikni boshidan kechirgan va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etilib, ma'naviy qashshoqlashtirilgan xalqimizning milliy tiklanish yo'lidagi sa'y-harakatlari qiyinchilik bilan amalga oshirildi. Mana

shunday murakkab va qiyin sharoitda xalqimiz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanishga majbur bo'ldi. Milliy va ma'naviy tiklanish jarayonida bizga qo'shni va do'st bo'lgan mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi hamda ko'magi ham katta rol o'ynadi. Bunday mas'uliyatli jarayonda barcha taraflarning manfaatlariga mos keladigan hamkorlikni kuchaytirish, haqiqiy ko'mak qo'lini cho'zgan davlatlarni tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayondagi xatoliklar keyinchalik qandaydir davlatlarning qarzdorlik sirtmog'iga tushib qolishga sababchi bo'lishi mumkin.

Biz bugun mustaqillikning dastlabki yillariga nazar tashlar ekanmiz, yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar jarayoniga, taraqqiyotning o'zbek modelidagi barcha tamoyillarida ma'naviy mezonlar doimo hal qiluvchi omil bo'lib kelganligini ko'rish mumkin.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, insonning kundalik hayoti va foaliyatida ma'naviy va moddiy bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutib kelganligi, jamiyat hayotini yanada yuksaltirish yo'lida ularning qaysi biri muhimroq ahamiyat tutganligi to'g'risida fikrlar xilma-xil bo'lib kelgan.


Jamiyat hayotining bugungi kunini va uning kelajagini ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligisiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu ikki omil qachonki uyg'unlashsa, shundagina jamiyatda yuksalish, milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida o'sish va o'zgarishlar sodir bo'ladi. Jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirishda, milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida taraqqiyotning "o'zbek modeli"ning o'rni katta bo'lganligi uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq unga katta e'tibor berib kelindi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida tutgan roli haqida Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida shunday fikrlarni bildiradi: "Mustaqillik biz uchun nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma'naviy imkoniyatlar manbai ekanini anglab, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berdik"¹.

Milliy-ma'naviy tiklanish jarayoni taraqqiyotning o'ziga xos bo'lgan o'zbek modeli bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir-birlarini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birlarini to'ldirib turadi.

Mazkur masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli», "Erxard (nemis) modeli" kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Mazkur tushunchalar zahirida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarning qaysi yo'l bilan, qay yo'sinda amalga oshirilishi bilan bir-biridan farqlanadi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 68-b.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li-“o'zbek modeli”



Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonidagi bunday bog'liqlikning ahamiyati katta ekanligini yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlaridan bilsak bo'ladi: "Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi"¹.

Jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda milliy-ma'naviy tiklanish yo'lida bunday bog'liqlikni va aloqadorlikni kuchaytirish doimo davlatimizning diqqat markazida turibdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqtisodiy hayotini yuksaltirish maqsadida bozor iqtisodiyoti munosabatlarining joriy etilishi tufayli fuqarolarimizning tafakkuri va dunyoqarashida katta o'zgarishlar paydo bo'ldi. Mamlakatimizda mulkdorlar sinfi shakllanib, tadbirkorlik va kichik biznes o'rta sinf uchun imkoniyatlar yaratib berildi.

O'zbekiston taraqqiyotining maqsadi esa jamiyatda ijtimoiy adatsizlik hukm surmaydigan, barcha fuqarolarning farovon hayotiga erishishidan iboratdir.

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda evalyutsion, bosqichma-bosqich o'tish yo'lini tanladi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, respublikadagi odamlar sonining ko'pligi, mustaqillikning ilk yillarida fuqarolar turmush darajasining pastligi va boshqa shunga o'xshash omillar bozor munosabatlariga asta-sekinlik bilan, ya'ni "ijtimoiy larzalarsiz" o'tishni taqozo etdi. Zero, har bir

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 69-b.

yangilik birdaniga amalga oshmaydi. Shoshilmasdan, puxta o'ylab qilingan ish katta muvaffaqiyat keltirishi xalqimiz hayotida o'z isbotini topgani haqiqat.

“2009 yil mohiyat e'tiboriga ko'ra, avvalo, eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tish bo'yicha biz tanlagan, mashhur besh tamoyilni o'z ichiga olgan o'zbek modeli, davlatimiz va iqtisodiyotimizni bosqichma-bosqich, izchil isloh etish va tadrijiy rivojlantirish strategiyasi uchun tom ma'noda sinov yili bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor”¹.

Bozor munosabatlariga o'tish yo'li bekorga tanlangani yo'q. O'zbekistonning har tomonlama qulay geografik siyosiy mavqei, O'rta Osiyo mintaqasida azaldan o'z o'rniga ekanligi, boy tabiiy resurslarga, an'anaviy ishlab chiqarish usuli va mehnatni tashkil etish shakllari mavjudligi uning birinchi sharti bo'lsa, har yili o'sib borayotgan aholisining soni va mehnatga yaroqli qismi butun aholining yarmiga yaqinini tashkil etishi buning ikkinchi sharti.

Aholining an'anaviy yashash joylariga bog'langanligi (o'troqligi) aksariyat respublika aholisiga xos bo'lib, bu hol mehnat bozorini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining milliy tarkibi ham o'ziga xosdir. O'z yurtiga, yashab turgan joyiga intilish, milliy qadriyatlarini e'zozlab yashash O'zbekiston aholisining 72 foizidan ortiq qismini tashkil etgan o'zbeklarga xos fazilat bo'lib, bu iqtisodga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Ana shu xususiyatlar hisobga olinib, O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanladiki, uning bu yo'li o'ziga xos, hech bir mamlakat andozasidan ko'chirib olinmagan, faqat o'zigagina mos keladigan o'zbek modelining alohida jihatlaridir.

Bozor munosabatlariga o'tishning boshlang'ich pallasida bu jarayon oson kechmadi. Ishlab chiqarish tarmoqlaridan uzilishlar, kunlik ehtiyoj mollarining taqchilligi muammolarning yanada kuchayishiga olib keldi. Ushbu murakkab sharoit xalqdan metin iroda, sabr-bardosh va fidokorona mehnatni talab qildi va respublika xalqi buning uddasidan chiqa oldi. Qolaversa mamlakatni boshqarib turgan rahbariyatning uzoqni ko'zlab olib borgan izchil, adolatli siyosati ham O'zbekistonni bozor iqtisodiyotining o'tish davri qiyinchiliklarini muvaffaqiyatli ortda qoldirishiga imkon bo'lib xizmat qildi.

Bugun O'zbekiston bozor munosabatlari sharoitida dadil rivojlanayotgan mamlakat. Xalq xo'jaligining, makroiqtisodiyotning barcha sohalarida yirik o'zgarishlarga erishgan mamlakat. Olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat zamirida oddiy xalq manfaati yotibdi. Aholining asosiy qismini o'rta hol qatlam tashkil etadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bo'lgan bolalar, nafaqaxo'rlar, o'quvchi, talabalar, nogironlar, yolg'iz onalar va ko'p bolali oilalar doim davlatning himoyasida.

Mamlakatda iqtisodiy barqarorlik vujudga keldi. Bir paytlar “boqimanda” xalq sifatida e'tirof etilgan xalq bugun o'zini iqtisodiy ta'minlabgina qolmay, chet elga turli-tuman xalq ehtiyoj tovarlarini erkin eksport qilmoqda. Bugungi o'zbekistonlikning mehnatga bo'lgan munosabati tubdan o'zgaragan. O'z mehnatining samarasidan bahramand xalq sifatida shijoatli mehnat bilan band.

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 34-35-b.

Qishloq va shaharlarmiz butunlay o'zgargan. Bugun O'zbekistonga dunyo ko'z tikkan. Bozor iqtisodiyoti orqali rivojlanayotgan O'zbekiston o'z oldiga yanada ulkan marralarni ko'zlab, dadil odimlamoqda.

Dastur va rejalarimiz bosh maqsadi-xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratishdan iboratdir. Ana shu yuksak marralarga erishish uchun mamlakatimizda demokratik, huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish, bir so'z bilan aytganda, haqiqatan ham hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish uchun o'zimizning kuch-quvvat va harakatlarimizni ayamasligimiz kerak.

2.2. Milliy-ma'naviy tiklanish zaminlari va madaniy muammolari

Madaniyat har bir millat va xalq uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u moddiy va ma'naviy madaniyatdan tashkil topgan. Jamiyat taraqqiyotini, insonning ma'naviy kamolotini madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir millatga xos bo'lgan milliy madaniyat asrlar mobaynida shakllanib keldi va jamiyat hayotining tarkibiy qismiga aylandi.

Dunyoning turli mintaqalari singari Markaziy Osiyo xalqlari ham o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega. Asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan shakllantirib kelingan milliy madaniyatimiz jahon madaniyatining tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. Milliy madaniyatni rivojlantirmagan, unga e'tibor bermagan xalqning, millatning kelajagi bo'lmaydi. Ajdodlarimiz tomonidan boyitib kelingan milliy madaniyatimiz har doim ham bir tekis rivojlanib kelmadi.

Markaziy Osiyoga nafs baland bo'lgan yovuz dushmanlarning ko'plab bosqinchilik urushlari xalqimizning moddiy va madaniy hayotiga katta zarar keltirgan.

Bosib olingan joylar xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish, madaniy-ma'naviy merosni yo'qotish, xalqlarni madaniy hayotdan uzoqlashtirib, ularni ma'naviy qashshoqlashtirish istilo etilgan xalqlarni asoratda ushlab turish yo'llaridan biri ekanligini tarixning o'zi isbotlab bergan.

Milliy va jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, u har bir avlod tomonidan boyitib kelinadi va keyingi avlodga meros qilib qoldiriladi. Madaniyatli xalq borliqdagi voqelikni to'g'ri tushuna olganligi uchun ham bosqinchi davlatlar bosib olingan joylar aholisi madaniyatini yo'qotishga harakat qilganlar.

Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o'ziga singdirib yuborishni, buning uchun o'z g'oya va mafkuralarini ularga majburan joriy etishni, madaniyatiga shikast etkazishni, milliy tili, milliy urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini rivojiga yo'l bermaslikni o'z siyosatining asosiy maqsadi qilib qo'ygan.

Istilochilar har doim erli xalqlarning madaniyatini, ma'naviyatini barbod etish, milliy til va urf-odatlar kamolotiga yo'l bermaslik, itoat ettirilgan xalqlarni jilovda ushlab turish, boyliklarini istagancha talon-taroj qilish, ularning barcha

kuch va imkoniyatlaridan bekamu ko'st foydalanishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini juda yaxshi bilishgan. Shuning uchun ham mustamlakachilar bu narsani har doim oldindan rejalashtirib kelganlar.

Madaniyatni yo'qotishga qaratilgan harakat kuchayib boraversa, o'z milliy madaniyatidan uzoqlashsa, xalq manaviy jihatdan qashshoqlashib borsa, odamlarda milliylik asta-sekin yo'qolib, ular o'z-o'zidan e'tiqodsiz bo'lib boraveradi.

Milliy-madaniyat, ma'naviyatning yo'qolib borishi jamiyat a'zolarida siyosiy manqurtlik, beparvolikni kuchaytirib, ularni ijtimoiy faollikdan uzoqlashib boradi. Bosqinchilar bosib olingan joylar aholisini mustamlakachilik kishanlarida uzoq vaqt ushlab turishni, ularning o'z haq-huquqlarini talab etmaydigan, itoatkor kishilarga aylantirishga intilganlar.

Tariximizga nazar tashlar ekanmiz, yurtimizga bostirib kirgan makedoniyalik Iskandar, bosqinchi arablar, Eron shohlari, Chingizxon qo'shinlari, chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq tuzumi madaniy jihatdan o'zidan ustun turgan xalqimizni o'zlariga bo'ysundirish qiyinligini sezishgan va shuning uchun ham ajdodlarimiz tomonidan boyitib kelingan erli tub xalqlar madaniyatini yo'qotishga katta e'tibor berganlar. Ular tomonidan madaniy merosimiz talon-taroj qilindi, madaniy yodgorliklar yo'qotildi, madaniyatni, ma'naviyatni rivojlantirish mumkin bo'lgan kishilar o'ldirib yuborilar edi.

Aksincha, bosib olingan mamlakatda ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat istilochi mamlakatga nisbatan bir necha bor ustun bo'lsa, unday joylarda mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish oson kechmaydi. Bizning jonajon Turkistonimiz va uning ajralmas bir bo'lagi hisoblangan hozirgi O'zbekiston bosqinchi chor Rossiyasiga nisbatan madaniy taraqqiyotda juda ustun turardi.

XIX asrning o'rtalarida Turkistonni bosib olgan chor Rossiyasi ham boshqa qo'plab bosqinchilar olib borgan siyosatni davom ettirdi.

Turkiston xalqlarini madaniy hayotdan uzoqlashtirish, ma'naviyatini yo'qotish, ularni omi va tobe xalqqa aylantirish rus chorizm bosqinchilarining asosiy maqsadlaridan biri bo'ldi. Milliy-madaniy va ma'naviy merosni talon-taroj qilish chor Rossiyasi bosqinining birinchi kunlaridanoq boshlangan, biron bir narsa ularning e'tiboridan chetda qolmas edi. Chor Rossiyasi milliy madaniyatimizga va ma'naviyatimizga boshqa barcha bosqinchilardan ko'ra ko'proq zarar keltirdilar. Ular Turkiston xalqlari madaniyati va ma'naviyati o'zlarinikidan ustun ekanligini bilishar, lekin buni tan olishni istashmasdi.

Turkiston azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning, adabiyot va san'atning eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, IX-XV asrlarda Turkiston xalqlari safidan Sharq va G'arbda o'rta asr matematika ilmi va maktabining asoschisi Muso al-Xorazmiy, "Ustodi soniy"- "Ikkinchi muallim," Sharq Aristoteli unvoniga sazovor bo'lgan Abu Nasr Forobiy, tibbiyot ilmining etakchisi, yuqori cho'qqisi, "Shayx ur-ra'is"- "Olimlar podshosi" Abu Ali ibn Sino, Sharqninggina emas, balki butun insoniyatning faxr-iftixori, qomusiy aql egasi Abu Rayhon Beruniy, o'rta asr astronomiyasining yorqin yulduzi al-Farg'oniy, Hadisi sharif va fiqh ilmining buyuk allomalaridan biri imom Ismoil Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, donishmand podshoh, yulduzlar jadvalining

asoschilaridan biri Mirzo Ulug'bek, o'z davri poeziyasi va prozasining yorqin yulduzlaridan hisoblangan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari minglab ulug' zotlar va ulamoi kiromlar etishib chiqdi. Ular o'sha davr fan va madaniyatining cho'qqilari edilar.

Haqiqatan ham, "mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan bebaho merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Mahtumquli yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta...

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"¹.

Sharqdan, xususan, Turkiston o'lkasidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari, o'lmas ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitdilar, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir qildilar. Butun madaniy olamga taniqli olimlar va mutafakkirlar, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva singari shaharlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'vorligi va go'zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirmoqda.

Bosqinchilar tomonidan toptalib kelingan milliy madaniyatimizga, ma'naviyatimizga nazar tashlar ekanmiz, uning tarixida Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat yuksak darajada taraqqiy etgan edi. Samarqand va boshqa ko'plab shaharlar esa madaniy markazlarga aylangan. Markaziy Osiyo madaniy, ma'naviy hayoti taraqqiyotida katta rol o'ynagan mana shu davrlar Chor Rossiyasi, keyinchalik esa sobiq sovet Rossiyasi tomonidan mensimasdan qarab kelindi. Bosqinchilar tomonidan Turkiston xalqlari doimo madaniy va ma'naviy hayotdan uzoqda bo'lishgan, deb o'rgatilayotgan davrda, Evropaning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Frantsiyada ajdodlarimiz madaniy hayoti tarixini o'rganishga katta e'tibor berib kelingan. 1988 yilda Frantsiyada temuriylar davri tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha Frantsuz assotsiatsiyasi tuzildi. 2008 yilda ushbu assotsiatsiyaning 20 yilligi nishonlanib, unda temuriylar davri madaniyati bilan shug'ullanuvchi Frederik Bressai xalqimiz madaniyati to'g'risida gapirib, "Dunyoda ikkita nurafshon va olamga mashhur shahar bo'lsa, bularning biri - Parij, ikkinchisi - Samarqand, biz doimo o'zbek xalqining qadimiy va o'ziga xos madaniyati va san'atini qadrlaymiz,"- deb fikr bildirgan edi.

Qaramlik yillarida chet mamlakatlar xalqimiz madaniyatini o'rganishga bo'lgan intilish va harakatlar, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlar sobiq sovet davlati dushmanlarining fikrlari, deb qarab kelinardi.

Ilm-fan va madaniyatning eng rivojlangan markazlaridan biri bo'lgan Turistonni zo'ravonlik yo'li bilan bosib olgan chor hukumati erli aholini qaramlik

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 9-11-b.

va qullik, siyosiy karaxtlik va ruhiy qashshoqlik holatida ushlab turishni mustamlakachilik siyosatining markaziy masalalaridan biri, deb hisoblab keldi. Ana shu yovuz va makkorona siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'l-yo'riqlari, "ilmiy asoslari"ni puxta va mukammal ishlab chiqish uchun ishni nimadan boshlash kerakligi haqida takliflar, fikr-mulohazalar, asosli xulosalar berish topshirig'i bilan podsho hukumati ko'pchilik olimlar va boshqa soha mutaxassislarini Rossiyadan Turkistonga yubordi. Yuborilgan harbiylar, huquqshunoslar, ayg'oqchilar, tarixchi va iqtisodchilar, nasroniy va boshqa din arboblari orasida yirik sharqshunos olim V. Bartol'd ham bo'lgan. Turkistondagi siyosiy-iqtisodiy vaziyatni, o'lkaning imkoniyat va sharoitlarini chuqur o'rganib, Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi ilmiy kengashida Bartol'd shunday deydi: "Biz shu paytgacha madaniy saviyasi o'zimizdan past bo'lgan xalqlarning erlarini bosib olgandik. Endi bo'lsa, Turkiston misolida tamom teskari holatga duch kelib turibmiz... Turkistonliklar bizning harbiy ustunligimizga tan berishadi, ammo ma'naviy ustunligimizni tan olishgani yo'q. Vazifa-ana shuni tan oldirishdan iboratdir... To shuni tan olishmas ekan, biz uzil-kesil g'alaba qozondik, deb ayta olmaymiz"¹.

Chor mustamlakachilari olimlar maslahatiga amal qilib, Turkistonda qanday qilib bo'lmasin, o'zlarining erli xalqdan "ma'naviy jihatdan ustunliklarini" isbotlashga va shu tariqa "uzil-kesil g'alabaga erishishga" astoydil kirishdilar. O'tmishdagi bosqinchilar singari chor mustamlakachilari ham bu sohadagi amaliy ishni Turkiston xalqini bir necha ming yillik tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan judo qilishdan, erli aholini ruhan-ma'nan mayib-majruh qilishga kirishishdan boshladilar. Bu bejiz emas edi, albatta. Balki chuqur o'ylab, uzoqni ko'zlab va rejalashtirib qo'yilgan mash'um siyosat edi. Ana shu siyosatning zaminida bir tomondan mustamlakachi chor hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini oshkora himoya qilish turgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkiston xalqlarini, uning katta bir qismini tashkil etadigan o'zbek xalqini milliy o'zligini anglashdan butkul mahrum qilib, o'tmishini unutkan, vatanparvarlik tuyg'usidan judo bo'lgan, istiqbolini ko'ra olmaydigan odamlar guruhiga aylantirish muddaosi ham turardi.

¹ B.Qobulov. Tuprorizor Turkiston. "O'zbekiston ovozi" 1993 yil. 9-iyul.

Xulosa.

ADABIYOTLAR :

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: “O`zbekiston”, 2003.
2. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: “O`zbekiston”, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, T.: “O`zbekiston”, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.: “O`zbekiston”, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. 4-jild. T.: “O`zbekiston”, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. T.: “O`zbekiston”, 1997.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: “O`zbekiston”, 1998.
8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz. 9-jild. T.: “O`zbekiston”, 2001.
9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: “O`zbekiston”, 2005, 96-b.
10. Karimov I.A. O`zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo`lmaydi. T.: “O`zbekiston”, 2005, 160-b.
11. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch. T.: “Ma`naviyat”, 2008.
12. “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo`yicha o`quv dasturini tayyorlash va ta`lim tizimiga joriy etish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.
13. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: “O`zbekiston”, 2001.
14. Milliy istiqlol g`oyasi targ`ibotining ilmiy asoslari. T., 2002.
15. Milliy g`oya – bizning g`oya. T., 2001.
16. Millatlararo hamjihatlik – barqarorlik omili. T., 1999.
17. Murtazo Qarshiboy. Bunyodkor xalq g`oyasi. – T.: “Ma`naviyat”, 2001.
18. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug`at. T.: “Sharq”, 2000.
19. Norboev T. Mustaqil rivojlanish jarayonida milliy g`oyani demokratik tomonlar bilan uyg`unlashtirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. JDIU – 2001.
20. Ortiqov M., Usmonov M. G`oya va mafkura. T.: “Yangi asr avlodi, 2001.
21. Milliy g`oya: targ`ibot texnologiyalari va atamalar lug`ati. T.: “Akademiya”, 2007.
22. «Uzbekiston ovozi» gazetasi. 2008 yil 2-avgust.